НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

BADIIY KITOB MUTOLAASINING INSON TAFAKKURI VA MA’NAVIY RIVOJIGA TA’SIRI

Xamdamova Manzura Jurabayevna
JIDU akademik litsey ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, kitobxonlik, mutolaa, internet, tafakkur, ma’naviyat, nutq madaniyati, yoshlar tarbiyasi, ruhiy salomatlik

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy kitob mutolaasining inson tafakkuri, tasavvuri va ma’naviy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, internet va raqamli texnologiyalar keng tarqalgan hozirgi davrda kitob o‘qishning ahamiyati ilmiy va psixologik qarashlar asosida yoritiladi. Maqolada internet va kitob o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligi asoslab beriladi.

Yigirma birinchi asr insonining hayoti texnologiyalar va internet bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar hamda mobil ilovalar axborotni tez va oson olishning eng qulay manbaiga aylandi. Natijada insonlar, ayniqsa yoshlar, vaqtining katta qismini telefon va kompyuter qarshisida o‘tkazishi odatiy holga aylanmoqda. Bu esa mutolaa, xususan badiiy kitob o‘qishdek foydali odatning asta-sekin susayib borishiga olib kelmoqda. Shu bois kitob mutolaasining insonning aqliy va ma’naviy rivoji uchun naqadar muhim ekanini anglash bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

Badiiy adabiyotning inson tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir. U o‘quvchini asar voqealarini chuqur his qilishga, qahramonlar taqdiri va ularning qarorlari haqida fikr yuritishga undaydi. Shu jarayon orqali kitobxonning hayotiy tajribasi kengayadi, insoniy fazilatlari shakllanadi hamda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi chegarani yanada teranroq anglay boshlaydi.badiiy asarning yana bir qancha foydalari borki, ular quyida kengroq yoritiladi.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Qisqa va tez ma’lumot berishga mo‘ljallangan tayyor videolar yoki boshqa turdagi kontentlar naqadar jonli va samarali ko’rinmasin, kitob mutolaasining o‘rnini bosa olmaydi. Chunki kitob o‘qish jarayonida,ayniqsa u murakkab asar bo’lsa, o‘quvchi matnni va voqealarni,qahramonlar orasidagi munosabatni tahlil qilishga majbur bo’ladi, sabab-oqibat o’rtasidagi bog‘liqlikni anglaydi va mustaqil xulosa chiqaradi. Shu orqali mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Ijodiy fikrlashga o’rgatadi.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim jihati shundaki, u tasavvurni kengaytiradi va masalalarga ijodiy yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchi voqealarni ongida jonlantiradi, obrazlarni tasavvur qiladi va shu orqali fikrlash doirasi yanada boyiydi.Kreativlik sifatlari qadrlanadigan yangi davrda badiiy kitob mutolaasi shu sifatlarni rivojlantirishning eng yaxshi usulidir

Dunyoqarashni kengaytiradi.

Maktab darsliklari yoki o‘quv qo‘llanmalardan farqli ravishda badiiy kitob faqat inson aqliga emas,uning ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. U xoh mutoz adabiyot namunasi bo’lsin,xoh fantastik janrdagi asar bo’lsin, kitobxonni kundalik tashvishlar doirasidan yuqoriroqqa ko‘tarib, bashariyat muammolari haqida o‘ylashga, yashashning maqsadi va mazmunini anglashga undaydi.Har bir adabiy asar o’quvchiga yangi g’oyalar, madaniyatlar haqida ma’lumotlar beradi,shu orqali odam o’zi yashab turgan jamiyatdan tashqari , boshqa ijtimoiy guruhlar, xalqlar va tarixiy davrlarni tushunishga erishadi.

Masalan, kitobxon Abdulla Qodiriyning’‘O‘tkan kunlar" romanini o’qir ekan, Otabek va Kumushning fojiasi fonida voqealar kechayotgan davrning ijtimoiy tartiblari, xalqimizning asrlar davomida shakllangan qadriyatlari,shuningdek, ichki nizolar va jaholat tufayli mamlakatning mustamlakaga aylanishini o’rganadi va xulosa chiqaradi. Bu shunchaki hikoya emas, balki tarix va shaxsiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga xizmat qiladigan tafakkur darsidir.

Ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

Bugungi kunda hayot sur’ati tezlashgan, qulayliklar ko‘paygan bo‘lsa-da, psixologik bosim va stress kuchayib borayotgan zamonda badiiy adabiyot ruhiy salomatlikni mustahkamlashning samarali vositalaridan biridir. Mutolaa jarayonida inson ichki osoyishtalikni his qiladi, hissiy muvozanati tiklanadi va ruhiy charchoq kamayadi.Buyuk Britaniyada o’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki,atigi 6 daqiqa kitob o’qish stress darajasini 60 foizga kamaytiradi.Bu musiqa tinglash yoki sayr qilishdan ham samaraliroqdir. Aksincha gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlar esa ko’pincha uqusizlik, ziqlik va holsizlikka sabab bo’ladi.

Hayotiy tajribani oshiradi.

Yaxshi badiiy asar yozuvchining uzoq yillik izlanishlari, boy hayotiy tajribasi va donishmandona qarashlari mahsulidir. Shu bois bunday asarlar o‘quvchiga nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki hayotiy saboqlar beradi, insonni o‘z ustida ishlashga va ma’naviy jihatdan yuksalishga undaydi. Natijada kitobxon hayotga yanada ongli, chuqur va mas’uliyatli munosabat bilan qaray boshlaydi. Masalan, Alisher Navoiyning’‘Hayratul-abror" dostonidagi hikoyatlarni olaylik. Shoir’‘Sher va Durroj" hikoyatida tilga ehtiyot bo‘lish zarurligini, yolg’onchilik va mas’uliyatsizlikning xunuk oqibatini ajoyib tazda tushuntiradi. Bu hikmatlar kitobxon ongiga shunchaki nasihat bo‘lib emas, balki hayotiy haqiqat bo‘lib singadi.

Internet va kitob o’rtasidagi muvozanat.

Zamonaviy jamiyatda internetdan foydalanish kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangani va uning ko’lab qulayliklarini inkor etib bo’lmaydi. Lekin unga tobora qaramlikning ortib borayotgani kishini o’ylatiradi. Virtual olamda o’tayotgan ko’plab soatlarning kichik qismi bo’lsada kitob mutolaasi uchun sarflansa, bundan faqat o’sish va rivojlanishga xizmat qiladi.Aslida, internet va kitobni bir-biriga qarshi qo’yish emas, ular orasidagi muvozanatni shakklantirish foydaliroq bo’lar edi. Elektron kitoblarning ommalashishi, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishni maqsad qilgan ilova va dasturlarning ko’payib borayotgani kitob va internet uyg’unligining yorqin misolidir.

Yuqoridagi nazarda tutilgan elektron va audiokitoblar kabi zamonaviy vositalardan foydalanish insonlar, xususan, yoshlarning va bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga va kitobxonlik odatining shakllanishiga ham xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga oilada kitob o'qish an'analarini yo'lga qo'yish, ta'lim muassasalarida mutolaa madaniyatini rag'bantlantirish, hamda kutubxonalar keng foydalanishni ta'minlash ham bu borada muhim o'rin tutadi. Shu yo'l bilan yosh avlod nafaqat raqamli savodxon, balki mustaqil fikrlay oluvchi, keng dunyoqarashli va yuksak ma'naviyatli shaxslar bo'lib yetishishiga erishish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy kitob mutolaasi insonning intellektual, ma'naviy va ruhiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U tafakkurni rivojlantiradi, mantiqiy fikrlashni chuqurlashtiradi, tasavvur va ijodkorlikni kengaytiradi hamda insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir etib, uni kundalik tashvishlar doirasidan olib chiqadi va hayot mazmuni haqida chuqurroq o'ylashga undaydi.

Internet va raqamli texnologiyalar zamonaviy hayotning muhim qismi bo'lsa-da, ular kitob mutolaasining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Tezkor va yuzaki axborot oqimi sharoitida kitob o'qish insonni chuqur fikrlashga, diqqatni jamlashga va ichki muvozanatni saqlashga o'rgatadi. Shu bois internetdan oqilona foydalanish bilan birga mutolaani hayot tarzining muhim qismiga aylantirish zarur.

Yosh avlodni badiiy adabiyotga oshno etish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish esa jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Proust and the Squid: The story and Science of the Reading Brain. Maryanne Wolf. New York: HarperCollins, 2007.

2.Mirziyoyev SH.M.''Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. - T., 2017.3.The Reading Mind: 3.A Cognitive Approach to Understanding How the Mind Reads. Daniel.T.Willingham. San Francisco:Josey-Bass, 2017.

4Alisher Navoiy.’‘Hayratul-abror". - T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti.

5.O’qish madaniyati va kitobxonlik asoslari. T: “O’qituvchi “ nashriyoti .

6. Abdulla Qodiriy.’‘O‘tkan kunlar". - T.: Sharq nashriyoti.

7.https://www.wikipedia.org/ .